



JINOYAT PROTSESSIDA MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH BO'YICHA XALQARO STANDARTLAR.

Bozorov Maqsudali Maxmudovich

Toshkent davlat yuridik universitetining
jinoyat-protsessual huquqi
kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10687573>

Hozirgi kunda huquqiy davlat va demokratik jamiyatni tashkil etish hamda inson qadri uchun tamoyili, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy standartlari jinoyat protsessining barcha bosqichlarida aniq o'z aksini topob turibdi desak, adashmagan bo'lamiz, albatta.

Shu bois, jinoiy protsessual majburlash choralarini qo'llashning xalqaro standartlari borasiga to'xtaladigan bo'lsak, Yevropa konvensiyasida fuqarolarning huquqi, erkinligi va xavfsizlik kafolati muhim ahamiyatga ega ekanligi va har qanday holatda davlat nazorati mavjudligi ta'kidlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsni dastlab ushlab va ular uchun dalillarning asoslarini tartibga soluvchi majburlov choralarini qo'llash mumkin. Shuni e'tirof etish kerakki, Yevropa konvensiyasining 5-moddasi sud nazoratining ikki xil shakli mavjudligi to'g'risida ta'kidlangan bo'lib, birinchisi, ushbu moddaning 3-bandga muvofiq ozodlikdan mahrum qilishni nazarda tutuvchi majburlov choralarini qo'llash, ya'ni shaxsni dastlabki ushlab yoki hibsga olish hisoblansa, ikkinchisi ushbu moddaning 4-bandga muvofiq ozodlikdan mavrum qilishni nazarda tutmaydigan majburlov choralaridir.

Shuningdek, shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki garov, hibsga olish, politsiya nazorati va pasportni topshirish kabi majburlov choralarini qo'llash yoki ozod qilish masalalarini sudya tomonidan asosli yoki asossiz qo'llanilganligini, aslida ushbu majburlov choralarini qo'llash zarurati mavjudmi yoki yo'qligi va shu kabi masalalarga oydinlik kiritib o'tish lozimligi belgilangan. Agar asosli gumon mavjud bo'lsa, majburlov choralarini qo'llash uchun aniq dalillar zarur bo'lmasligi ham Yevropa konvensiyasiga belgilangan¹.

Bundan tashqari, sudya tomonidan majburlov choralarini qo'llashda asoslar yetarli deb baholasa, unda bu to'g'risida ajrim chiqarish orqali amalga oshirilishi belgilangan. Agar sudya hibsga olishning qonuniyligi ko'rib chiqish davomida noqonuniyligini aniqlasa, hibsga olingan shaxsni ozod qilish bo'yicha qaror chiqarishi ham Yevropa konvensiyasiga belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

¹Yevropa konvensiyasining 5-moddasi 3-4-bandlari.





Qolaversa, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi BMTning barcha davlatlar intilishi kerak bo'lgan "umumiy standart"ni belgilaydigan birinchi hujjatlaridan biri yashash huquqi, erkinlik huquqi va shaxsiy daxlsizlik huquqi, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi munosabatni taqiqlashga qaratilgan. Deklaratsiya har bir insonning munosib rivojlanishi, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan. Ular jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan tajribani ifoda etadi va sivilizatsiyalashgan davlatlar pastga tusha olmaydigan darajani belgilaydilar.


Shuningdek, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashning muqarrarligi, jinoyatchilikning oldini olish muammolari hukumatlarga majburlash choralarini qo'llashda BMT standartlari, me'yorlari va tamoyillarining eng keng qo'llanilishini ta'minlashni taklif qiladi.

Insonni himoya qilish bilan bog'liq Umumjahon deklaratsiyasi g'oyalarining bevosita rivojlanishi "fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ni ishlab chiqish edi. Uning alohida ahamiyati shundaki, u ko'rib chiqilayotgan sohadagi xalqaro me'yorlarni yanada yuqori darajada, batafsil belgilab bergan va u e'lon qilgan huquqlarni iloji boricha kafolatlashga intilgan, ya'ni huquqlari va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni samarali himoya vositasi bilan ta'minlash, har qanday shaxs uchun huquqiy himoya huquqini ta'minlash va bunday himoyani talab qilish imkoniyatlarini rivojlantirish kabilardir. Xalqaro Paktdagi qoidalar jinoyat protsessida ishtirok etgan har qanday shaxs uchun va birinchi navbatda, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi uchun katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, Miranda qoidasiga ham nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda ham shaxs politsiya tomonidan hibsga olingandan so'ng, politsiya xodimi hibsga olinganga ma'lum ogohlantirishlar berishi kerakligi, sudda sudlanuvchi jim turish huquqi, advokat bilan maslahatlashish va so'roq paytida advokat hozir bo'lish huquqini anglatmaguncha, sudlanuvchini politsiya tomonidan so'roq qilinishi mumkin emasligi, agar sudlanuvchi nochor bo'lsa, advokat tayinlash lozimligi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin².

BMT organlarining xalqaro tamoyillar va standartlarni ishlab chiqish sohasidagi faoliyati, shuningdek, sud va huquqni muhofaza qilish organlari mansabdor shaxslarining jinoyat protsesslari ishtirokchilariga nisbatan harakatlarini belgilaydigan normalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuni tan

² https://www.law.cornell.edu/wex/miranda_warning





olish kerakki, BMT tavsiyalari inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi Rossiya federatsiyasi fuqarolari uchun sud tomonidan himoya qilinadigan kafolatlangan huquq va erkinliklar ro'yxatini kengaytirdi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining roli va javobgarligi kuchaydi. Rossiya fuqarolari birinchi marta inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga individual shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega bo'lishdi va Rossiya o'zi tarafdor bo'lgan har qanday ishning mohiyati bo'yicha sudning yakuniy qarorlarini bajarish majburiyatini oldi. Umuman olganda, jinoiy protsessual majburlash choralarini qo'llashda sud nazorati, shu jumladan xalqaro huquq sohasida ham, jinoiy jarayon sohasida ham ko'plab olimlar tomonidan ijobiy baholanadi. Xususan, P.M.Valeyev "Nizolarni hal qilish xalqaro sud organlari tomonidan, boshqa usullar yetarlicha samarali bo'lmaganda, haddan tashqari, ammo ishonchli usul", - deb qaragan.

Shuningdek, odil sudlovga oid xalqaro standartlar mustahkamlab qo'yilgan xalqaro ana shu shartnoma va bitimlar amaliyotda "Miranda qoidasi", "Bangalor printsiplari", "Sudyalar mavqei to'g'risida Yevropa Xartiyasi", "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro bill", "Milan qoidalari", "Yuvenal yustitsiya", "Karakas deklaratsiyasi", "Pekin qoidalari", "Ar-Riyod printsiplari", "Bangkok deklaratsiyasi", "Vena deklaratsiyasi", "Insoniylik mezonlari" kabi muxtasar shakldagi nomlar bilan yuritiladi.

Bu xalqaro-huquqiy hujjatlarning barchasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning asosini tashkil etadi va sudlar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Xususan, AQSH jinoyat olamida o'ziga xos jinoyatlarni sodir etgan Ernest Arturo Miranda nomi bilan bog'liq "Miranda qoidasi" ham ana shunday hujjatlar qatoriga kirganligi barchamizga ma'lum.

Ushbu Miranda qoidasiga ko'ra, sukut saqlash huquqi vujuga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Sukut saqlash huquqi, ya'ni o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish huquqi Jinoyat-protsessual kodeksning 48-moddasida qat'iy kafolatlangan. Ushbu modda talabiga ko'ra, gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek, o'zining jinoyatga aloqador emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emasligi belgilangan. Xususan, shaxs tomonidan aytilgan har bir so'z yoki xatti-harakat sudda unga qarshi ishlatilishi mumkinligi haqida ogohlantirilish huquqi bilan "Miranda qoidasi" mazmunan o'zaro yaqindir. Masalan, amaldagi Jinoyat-





protsessual kodeksimizning 46-moddasiga asosan, shaxs o'zining ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lishi va nimada ayblanayotganligini bilish huquqiga ega hisoblanadi. Shuningdek, mazkur moddada shaxsga o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emasligi kafolatlangan. Bundan tashqari, advokatga murojaat qilish huquqi bilan "Miranda qoidasi" o'rtasida ham o'zaro o'xshashlik mavjud.

Qisqacha qilib aytganda, "Miranda qoidasi" o'z navbatida, jinoyat sodir etishda gumonlangan yoki ayblangan shaxsning huquq va erkinliklarini poymol qilmaslik imkonini berishini ko'rishimiz mumkin.

